

# Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirish ustuvor vazifa

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirish ustuvor vazifa

Bugun Termiz shahridagi 1-sektor shtabida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, xususan Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilishda yoshlarga oid belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha viloyat Ishchi guruhi tomonidan sektor rahbarlari, shahar hokimining o'rinbosarlari va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Unda asosan "Yoshlar daftari" va yoshlarni "mahallabay" bandligini ta'minlash, ularni sportga keng jalb qilish hamda "Yoshlar: 1+1" loyihasi asosida ishlarni tizimli olib borilishi muhokama qilinib, yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish borasida aniq vazifalar belgilab olindi.

Shundan so'ng, xabar berganimizdek Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev, sektorlar rahbarlari bilan birgalikda shahrimizda tashabbuskor va o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan yosh yigit-qizlar bilan ochiq muloqot shaklida "Hokim va yoshlar" uchrashuvini o'tkazdi.

O'tkazilgan "Hokim va yoshlar" uchrashuvida ham yosh avlodning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish, qiziqtirgan masalalar, o'ylantirayotgan muammolarga ijobiy yechim topish choralariga e'tibor qaratildi.

Eslatib o'tamiz: Termiz shahri bo'ylab "Haftaning har payshanba kuni - yoshlarimizning tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlash kuni" etib belgilandi.

Har payshanba kuni soat 14:00 da 1-sektor (Guliston MFY) binosida sektorlar va barcha mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirokida tashabbuslaringiz hamda uning yechimlari bo'yicha taqdimotingiz bilan ishtirok etishingiz mumkin